

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA VA ORTODONTIYA KAFEDRASI**



**“FAKULTET ORTOPEDIK STOMATOLOGIYASI 1”
MODUL ISHCHI O‘QUV DASTURI
3-KURS**

Bilim sohasi: 900000 – Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi: 910000 – Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishi: 60910100 – Stomatologiya

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi POSI.15606		O'quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 30	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1	90		90	180
2.	I. FANNING MAZMUNI				
	1. Fanning mazmuni.				
	<p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – bakalavriat stomatologiya yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalarga tish qattiq to`qimasi va tish qatorlari nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinikalari, tashxis va qiyosiy tashxislari va davolash usullari hamda ularni oldini olish chora-tadbirlarini o`rgata borish va ko`nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><i>Fanning vazifalari:</i></p> <p>-fanining bo`limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichma- bosqich tanishtira borish, o`rgata borish va ko`nikmalarni hosil qilish;</p> <p>-yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o`stirish va bilimini saqlash darajasini oshirish;</p> <p>-talabani klinik fikrlash qobiliyatini o`stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko`nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga yetkazish;</p> <p>-fan sohasiga taaluqli tish qattiq to`qima va tish qatorlari nuqsonlarining tashxisi va qiyosiy tashxisi bosqichlarini, davolash va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to`g`risida ma`lumot berish.</p>				
	II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)				
	Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:				
	<p>1. Tish qattiq to'qimasining nuqsonlarini etiologiyasi, patogenezini va klinikasi.</p> <p>Tish toj qismining total nuqsonlarining sabablari, total nuqson natijasida kelib chiquvchi morfologik va funksional o'zgarishlar, toj qismining total nuqsonlarida tekshirish usullari, ildizlarning klinik variantlari va ularni tiklash asoslari</p>				
	<p>2. Tish qattiq to'qimasining nuqsonlarini qistirmalar (kiritmalar) bilan tiklash.</p> <p>Qistirmalar, ularning turlari. Qistirmalarning afzalliklari va kamchiliklari. Ularga bo'lgan ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Qistirmalarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p>				
	<p>3. Tish qattiq to'qimasining nuqsonlarini sun'iy qoplamalar</p>				

yordamida tiklash.

Sun'iy qoplamalar va ularning turlari. Yarim qoplama va ekvatorial qoplamalar. Metall, plastmassa, metalokeramika va sirkon dioksididan tayyorlanadigan sun'iy qoplamalarning xususiyatlari, ularni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

4. Tish toj qismining to'liq nuqsonlarida qo'llaniladigan o'zakli konstruksiyalar.

Tish toj qismining to'liq nuqsonlarida qo'llaniluvchi o'zakli tishlar, ularni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari, ularni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlarida yuz berishi mumkin bo'lgan xatoliklar va ularning asoratlari. Tish toj qismining to'liq nuqsonlarida qo'llaniladigan anker va elastik standart o'zaklar, o'zak-cho'girli qistirmalar, o'zak – cho'girli qistirmalar tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

5. Tish qatorlarining qisman nuqsoni.

Tish qatorlarining qisman nuqsonlarining klinikasi. Tish qatorlarining yaxlitligi buzilishi. Tishlarning funksional zo'riqishi. Ovqat chaynash, talaffuz va estetik me'yorlarni buzilishi. Qisman tish qatori nuqsonlari tufayli ChPJBdagi o'zgarishlar. Qisman tish qatori nuqsonlarida og'iz bo'shlig'ini protezlashga tayyorlash. Qisman tishsizlikning profilaktikasi.

Jami:

1. Qisman tish qatori nuqsonida ko'priksimon protezlar bilan protezlash asoslari.

Ko'priksimon protezlar tayyorlash uchun tishlarni charxlash mezonlari. Og'riqsizlantirish. Qoplama konstruksiyasiga mos ravishda tishlarni charxlash, retraksiya usullari va qolip olish texnikasi.

2. Qisman tish qatori nuqsonida ko'priksimon protezlar bilan protezlash tamoyillari.

Ko'priksimon protezlarning tarkibiy qismlari. Ko'priksimon protezlar biomexanikasi. Tayanch tishlarni tanlash mezonlari. Suyak ichi implantatlari yordamida ko'priksimon protezlar bilan protezlash.

3. Kavsharlangan va yaxlit quyma ko'priksimon protezlarning tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

Kavsharlangan ko'priksimon protezlarning tayyorlashni klinik laborator bosqichlari. Ularning o'ziga xos xususiyatlari.

4. Yaxlit quyma ko'priksimon protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

Quyma, metall chinni ko'priksimon protezlarning tayyorlashni klinik laborator bosqichlari. Ko'priksimon protezlarning tana qismining shakli. Ko'priksimon protezlarni baholash mezonlari. Ko'priksimon protezlar bilan davolashda uchraydigan xato va asoratlar.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

1.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini etiologiyasi, patogenezi va klinikasi.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Qistirmalar turlari. Vinirlar. Chaynash bosimi kuchlarining ta’sirini hisobga olgan holda qistirma uchun bo‘shliqlarni shakllantirish asoslari. Tayyorlash usullari va ketma-ketligi.</p> <p>Olinmaydigan tishlar bilan protezlashga muhtoj bo‘lgan bemorlarni tekshirish, tashxis qo‘yish va davolash rejasini tuzish.</p> <p>Klinik amaliyot: Turli o‘lchamdagi borlarni turli dastaklarga o‘rnatish.</p>
2.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini etiologiyasi, patogenezi va klinikasi.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Metall qistirmalarni ishlab chiqarishning klinik va laborator bosqichlari. Qistirmalar tayyorlash bevosita va bilvosita usullari. Ikkala usulning qiyosiy xususiyatlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Tish charxlash uchun tez qotuvchi plastmassadan polimer shablon tayyorlash.</p>
3.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini qistirmalar (kiritmalar) bilan tiklash.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Chinni, nur o‘tkazmaydigan kompozit xom ashyolardan, plastmassadan, shuningdek kombinirlangan qistirmalarni tayyorlashning klinik va laboratoriya bosqichlari. Estetik qistirmalarni plombalar bilan taqqoslash. Kesuv tishlarini E-max press keramikalar bilan yoki PFM bilan estetik restovratsiya o‘tkazish.</p> <p>Klinik amaliyot: Tish charxlash uchun tez qotuvchi plastmassadan polimer shablon tayyorlash.</p>
4.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini qistirmalar (kiritmalar) bilan tiklash.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Vinirlarni tayyorlash xususiyatlari, ishlab chiqarish bosqichlari. Ishlatiladigan xomashyolar. Turli xil qistirmalarni ishlab chiqarishda mumkin bo‘lgan xatolar va asoratlar. Ularni bartaraf etish yo‘llari.</p> <p>Klinik amaliyot: Turlicha konstruksiyalar uchun anatomik qolip olish(modelda).</p>
5.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini sun’iy qoplamalar yordamida tiklash.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Tish toj qismidagi nuqsonni sun’iy qoplamalar bilan davolashga bo‘lgan ko‘rsatmalar. Sun’iy qoplama turlari. Sun’iy qoplamalarga bo‘lgan klinik talablar. Sun’iy qoplamalar tayyorlashning umumiy klinik-laboratoriya bosqichlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Turli konstruksiyalar uchun sement qorish.</p>
6.	<p>Ma`ruza: Tish qattiq to‘qimasining nuqsonlarini sun’iy qoplamalar yordamida tiklash.</p> <p>Amaliy mashg‘ulot: Metalldan ezib tayyorlanadigan qoplamalarga bo‘lgan ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Metalldan ezib tayyorlash (shtampovka usulda) usuli bilan tayyorlangan sun’iy qoplama uchun</p>

	<p>tishni to'g'ri charxlash mezonlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Qolip olish uchun qoshiq tanlash.</p>
7.	<p>Ma`ruza: Tish toj qismining to'liq nuqsonlarida qo'llaniladigan o'zakli konstruksiyalar.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Ezib tayyorlangan qoplamalarning klinik-laborator bosqichlari. Qoplamalarni ezib tayyorlash (tashki, aralash shtampovka) turlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Kavsharlangan ko'priksimon protez qoplamasi uchun tish charxlash (modelda). Tishlarni okkluzion va bukkal yuzalarini charxlash.</p>
8.	<p>Ma`ruza: Tish toj qismining to'liq nuqsonlarida qo'llaniladigan o'zakli konstruksiyalar.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Qoplamalarni og'izda charxlangan tabiiy tishlarga o'lchab ko'rish. To'g'ri tayyorlangan qoplamalarga bo'lgan talablar. Metall qoplamalarni oqartirish va oxirgi ishlovi. Qoplamalarni pardoqlash sifatini baholash.</p> <p>Klinik amaliyot: Tish charxlash uchun tez qotuvchi plastmassadan polimer shablon tayyorlash.</p>
9.	<p>Ma`ruza: Tish qatorlarining qisman nuqsoni.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Yaxlit quyma qoplamalarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari. Yaxlit quyma qoplamalar uchun tishlarni charxlash. Mumni metallga almashtirish.</p> <p>Klinik amaliyot: Turlicha konstruksiyalar uchun anatomik qolip olish(modelda).</p>
10.	<p>Ma`ruza: Tish qatorlarining qisman nuqsoni.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Chinni, dioksid-sirkon, metall-keramika va metall-plastmassa uchun charxlashning o'ziga xos tomonlari. Zinapoya shakllari, uning milkka nisbatan joylashishi. Kombinirlangan qoplamalar uchun zinapoya shakllantirish. Estetik qoplamalar uchun rang tanlash xususiyatlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Yaxlit quyma qoplama uchun tish charxlash (modelda)</p>
11.	<p>Amaliy mashg'ulot: Qoliplarni olishning o'ziga hos tomonlari. Milk burmasining morfologiyasi, «milk cho`ntagi» tushunchasi. Milk burmasini «ochish» usullari, shakillangan zinapoyani ochish. Ikki kavatli qolipni olish usullari.</p> <p>Klinik amaliyot: Sirkon va keramik qoplama uchun tish charxlash(modelda).</p>
12.	<p>Amaliy mashg'ulot: Chinni qoplamalar uchun tishlarni charxlash. Chinni qavatlarini surish qoidalari. Press-keramikadan qoplamani tayyorlashning laborator bosqichlarining xususiyatlari. Dioksid-sirkon, plastmassa qoplamalarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Turlicha konstruksiyalar uchun anatomik qolip olish(modelda).</p>
13.	<p>Amaliy mashg'ulot: Metall-chinni, metallplastmassa va dioksid sirkon-keramika qoplamalarni tayyorlashning klinik-laboratoriya bosqichlari.</p>

	Klinik amaliyot: Turli konstruksiyalar uchun sement qorish.
14.	Amaliy mashg'ulot: Teleskopik, ekvatorial va boshqa konstruksion qoplamalarni tayyorlashni o'ziga xos tomonlari. Klinik amaliyot: Turli konstruksiyalar uchun sement qorish.
15.	Amaliy mashg'ulot: Metall va boshqa turdagi qoplamalarni sementga qotirish va bemorga beriladigan maslaxatlar. Qoplamalarni tayyorlash klinik-laborator bosqichlarida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar xamda ulardan kelib chiqadigan asoratlar Klinik amaliyot: Tish bo'yin qismida turli shakldagi tokchalar xosil qilish (modelda).
	Jami:

VI semester

1.	Ma`ruza: Qisman tish qatori nuqsonida ko`priksimon protezlar bilan protezlash asoslari. Amaliy mashg'ulot: Tish toj qismi butunlay yo`qotilganda og'iz bo'shlig`ining klinikasi, protezlash turlari. Ildizga bo'lgan talablar. O'zakli konstruksiyalar tasnifi. Klinik amaliyot: Tish toj qismi to'liq yo`qotilganda bemorlarni tekshirish
2.	Ma`ruza: Qisman tish qatori nuqsonida ko`priksimon protezlar bilan protezlash asoslari. Amaliy mashg'ulot: Cho'girli o'zakli konstruksiyalar bilan tiklash. Kopeykin bo'yicha o'zakli tishlarni bir va ikki ildizli parallel kanallarga tayyorlanishining usuli. O'zakli tishning konstruksiyasini tayyorlanishining bevosita va bilvosita usuli. Klinik amaliyot: Bir ildizli tishlar ildizini modelda o'zakli konstruksiya uchun tayyorlash
3.	Ma`ruza: Qisman tish qatori nuqsonida ko`priksimon protezlar bilan protezlash tamoyillari. Amaliy mashg'ulot: Noparallel kanalli ko`p ildizli tishlarga o'zakli konstruksiyalarini tayyorlanishining usullari: Bekmetov bo'yicha o'zakli tish, «qistirmaning ichida o'zakli qistirma», «asosiy yo'naltiruvchi kanal bilan o'zakli tish» va boshqalar. Klinik amaliyot: Bir ildizli tish ildizidan qolip olish(modelda).
4.	Ma`ruza: Qisman tish qatori nuqsonida ko`priksimon protezlar bilan protezlash tamoyillari. Amaliy mashg'ulot: Standart o'zaklarning turi. Noparallel kanalli ko`p ildizli tishlarga standart anker o'zaklar termasi va kompozitlar yordamida chugirli o'zak konstruksiyalarini tayyorlashning bevosita usuli. Klinik amaliyot: Bir ildizli tish kanalida o'zak cho'girmali qistirma mum kompozitsiyasi yaratish (modelda).
5.	Ma`ruza: Kavsharlangan va yaxlit quyma ko`priksimon protezlarning tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

	<p>Amaliy mashg'ulot: Tish qatorlarining qisman nuqsonini tasniflari va uning klinik holati. Tish qatorini mustaqil ishlaydigan tishlar guruhiga bo'linishi. Funktsional va nofunktsional tishlar guruhlari paydo bo'lishi. Parodontning funksional yuklanilishi. Tish qatorlarining deformatsiyasi. Estetik normalarni, gapirish va chaynov funksiyalarni buzilishi. Tishlarning yo'qotilishi bilan bog'liq chakka-pastki jag' bo'g'imining o'zgarishlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Ko'p ildizli tishlar kanallaridan qolip olish (modelda).</p>
6.	<p>Ma`ruza: Kavsharlangan va yaxlit quyma ko'priksimon protezlarning tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Og'iz bo'shlig'i tishlarining qisman nuqsonini protezlashga mahsus tayyorlash (terapevtik, xirurgik, ortopedik, ortodontik). Okklyuzion yuzani alveolararo balandlikni ko'tarish hisobiga tekkislash. Okklyuzion yuzani tishlarni kaltalatish hisobiga tekislash. Tish qatorlarining deformatsiyasidagi okklyuzion buzilishlarini to'g'rilash usullari.</p> <p>Klinik amaliyot: Bir ildizli tishlar kanallaridan qolip olish (modelda).</p>
7.	<p>Ma`ruza: Yaxlit quyma ko'priksimon protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun tayanch tishlarni tanlash. Ko'priksimon protezlar bilan davolash davrida tayanch tishlar sonini aniqlashning klinik-teoretik xisoboti (7 tamoyil). Odontoparodontogramma.</p> <p>Klinik amaliyot: Odontoparodontogramma tuzish va uning taxlili</p>
8.	<p>Ma`ruza: Yaxlit quyma ko'priksimon protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p> <p>Amaliy mashg'ulot: Markaziy okklyuziyani aniqlash. Tishlarning qisman nuqsonining 1-3 guruhlarida markaziy okklyuziyani aniqlash va qolgan tishlarning markaziy okklyuziyasining turli moslamalarida shifokorning taktikasi.</p> <p>Klinik amaliyot: Xar xil klinik ko'rinishda markaziy okklyuziyani aniqlash.</p>
9.	<p>Amaliy mashg'ulot: Kavsharlangan ko'priksimon protezlarni tayyorlanishining klinik-laborator bosqichlari. Ko'priksimon protezlarning tanasining turlari va ularning qo'llanilishining o'ziga hos tomonlari. Kombinirlangan modellarni tayyorlash.</p> <p>Klinik amaliyot: Bir ildizli tishlar ildizini modelda o'zakli konstruksiya uchun tayyorlash.</p>
10.	<p>Amaliy mashg'ulot: Tishlarning qisman nuqsonini quyma ko'priksimon protezlar bilan ortopedik davolash. Parallelometriya tushunchasi. Quyma ko'priksimon protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.</p> <p>Klinik amaliyot: Ko'p ildizli tishlarda o'zak-cho'girli qistirma mum kompozitsiyasini yaratish(modelda).</p>
11.	<p>Amaliy mashg'ulot: Kombinirlangan ko'priksimon protezlarni (metall-</p>

	<p>chinni, metall-plastmassa, dioksid-sirkon-chinni) tayyorlanishining klinik-laborator bosqichlari. Quyma tilla qoplamalar, metalokeramika yoki keramik ko`priksimon protezlar bilan sifatli protezlashda davolash rejasini tuzish.</p> <p>Klinik amaliyot: Yaxlit quyma qoplama uchun tish charxlash (modelda)</p>
12.	<p>Amaliy mashg`ulot: Chinni massasini metall karkasga bosqichma-bosqich surtish. Plastmassani metall karkasiga bosish. Qoplovchi hom ashyoning rangini tanlash.</p> <p>Klinik amaliyot: Tish qatorining qisman nuqsonida ortopedik davo rejasini tuzish.</p>
13.	<p>Amaliy mashg`ulot: Press-keramik, dioksid-sirkon va kompozit ko`priksimon protezlarga ko`rsatmalar, klinik-laborator bosqichlarining uziga xos xususiyatlari. Yakuniy laborator bosqich rangni tug`irlash, glazurlash, ishlov berish va mahkamlash. Ko`priksimon protezlarni sementga qotirish.</p> <p>Klinik amaliyot: Sirkon va keramik qoplama uchun tish charxlash(modelda).</p>
14.	<p>Amaliy mashg`ulot: Implantatsiya turlari. Yechilmaydigan protezlarni qotirish uchun ichki suyak implantatlarni qo`llanilishi. Implantant turlari, tasniflari, tarkibiy qismlari. Dental implantatlarda tayanib turadigan ko`priksimon protezlarning klinik-laborator bosqichlarining o`ziga xos xususiyatlari. Dental implantatlardan qolip olish usullari.</p> <p>Klinik amaliyot: Turli konstruksiyalar uchun sement qorish.</p>
15.	<p>Amaliy mashg`ulot: Ko`priksimon protezlarni topshirish. Ko`priksimon protezlarni yasashda uchraydigan hato (texnik, klinik) va asoratlar, ularni bartaraf etish. Okklyuzion munosabatlarni korreksiyalash. Profilaktika uslublari.</p> <p>Klinik amaliyot: Tish bo`yin qismida turli shakldagi tokchalar xosil qilish (modelda).</p>
	<p>Jami:</p>

Amaliy mashg`ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o`qituvchi tomonidan o`tkaziladi.

Amaliy mashg`ulotlar 50% nazariy va 50% klinik o`quv amaliyotidan iborat.

Amaliy mashg`ulotlarni o`tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg`ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
 - O`qituvchining innovasion pedagogik faoliyati bo`yicha bilimlarni chuqurlashtirish imqoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg`otish;
 - Talabada natijani mustaqil ravishda qo`lga kiritish imqoniyatini ta`minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

Klinik o`quv amaliyotni tashkil etish bo`yicha umumiy ko`rsatma va

tavsiyalar:

Talabalarning o'quv klinik amaliyoti kafedraning klinik bazalarida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlarini muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa, unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqichni taxlili namoyish qilinadi.

3. Xulosa – o'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish. Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim). O'qituvchi nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladi, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashga tayyor bo'lishlari lozim. Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

V semestr

1. Turli o'lchamdagi borlarni turli dastaklarga o'rnatish.
2. Yaxlit quyma qoplama uchun tish charxlash (modelda).
3. Kombinirlangan qoplama uchun tish charxlash(modelda).
4. Sirkon va keramik qoplama uchun tish charxlash(modelda).
5. Turlicha konstruksiyalar uchun anatomik qolip olish(modelda).
6. Turli konstruksiyalar uchun sement qorish.
7. Tish bo'yin qismida turli shakldagi tokchalar xosil qilish (modelda).
8. Qolip olish uchun qoshiq tanlash.
9. Tish charxlash uchun tez qotuvchi plastmassadan polimer shablon tayyorlash.

VI semestr

1. Tish toj qismi to'liq yo'qotilganda bemorlarni tekshirish.
2. Bir ildizli tishlar ildizini modelda o'zakli konstruksiya uchun tayyorlash.
3. Bir ildizli tish ildizidan qolip olish(modelda).
4. Bir ildizli tish kanalida o'zak cho'girmali qistirma mum kompozitsiyasi yaratish (modelda).
5. Ko'p ildizli tishlarni kanallarini kengaytirish (modelda).
6. Ko'p ildizli tishlar kanallaridan qolip olish (modelda).
7. Ko'p ildizli tishlarda o'zak-cho'girli qistirma mum kompozitsiyasini yaratish(modelda).
8. Xar xil klinik ko'rinishda markaziy okklyuziyani aniqlash.
9. Tish qatorining qisman nuqsonida ortopedik davo rejasini tuzish.
10. Odontoparodontogramma tuzish va uning taxlili.
11. Kavsharlangan ko'priksimon protez qoplamasi uchun tish charxlash (modelda).

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

V semestr

1. Tish toj qismining to'liq zararlanishi. Uning etiologiyasi, patogenezini va klinikasi.
2. Tish qatori qisman nuqsonlari tasniflari.
3. Tish qatori ikkilamchi deformatsiyalari tasniflari.
4. Kennedi tasnifi bo'yicha tish qatorlarining qisman nuqsonlari bor bemorlarni tekshirish usullari, OBSHQ ning anatomik xususiyatlari. OBSHQ ni qon bilan ta'minlanishi va innervatsiyasi.
5. Zamonaviy standart o'zaklar va ular yordamida tish toj qismini tiklash asoslari.
6. Tish parodontining chidamliligi, odontoparodontogramma o'tkazish, uning taxlili
7. Tish qatorlari qisman nuqsonlarining Gavrilov, Engel va Oksman bo'yicha tasniflari
8. Tish qatorlari qisman nuqsonlarining Grozovskiy, Amiraev va Perzashkevich bo'yicha tasniflari
9. Tish qatori deformatsiyalarini Gavrilov va Ponomaryova bo'yicha tasniflari.
10. Tish qatorlari deformatsiyalarini bartaraf qilishning apparatur-jarroxlik usullari.

Jami:

1. Tish qatorlari deformatsiyalarini bartaraf etishning apparatur-fizioterapevtik va ortodontik usullari.
2. Zamonaviy ko'priksimon protezlar
3. Tish charxlash usullari
4. Markaziy okklyuziya, markaziy munosabat va alveolalararo balandlik

- tushunchalari. Markaziy okklyuziyani aniqlash usullari
5. Tish qatori deformatsiyalarida okklyuziyani shakllantirishning gnatologik asoslari.
 6. Tish qatori qisman nuqsonlarida qo'llaniladigan olinadigan protezlar turlari.
 7. Olinadigan tish protezlarini tayanch tishlarga tayanib fiksatsiyalash asoslari, klammerlar turlari.
 8. Tish ekvatori haqida tushuncha, oraliq chiziqni farqlash, parallelometrni ishlash mezonlari.
 9. Tish qatorlari nuqsonlarida yuzaga keluvchi ChPJB disfunktsiyalari, disfunktsiya indeksi.
 10. Tayanib ushlab turuvchi klammerning tayanch qismi uchun tishning okklyuzion yuzasida joy charxlash, tayanib ushlab turuvchi klammerlarning turlari va ularni qo'llash usullari.

Mustaqil o'zlashtiradigan mavzular bo'yicha talabalar quyidagilardan foydalanadi:

- Referatlar tayyorlaydi va ximoya qiladi
- Prezentasiyalar tayyorlaydi.
- Organayzerlar tuzadi.
- Dokladlar tayyorlaydi.
- Muammoga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechadi.

Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1 moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi. Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

3.

V. TA'LIM NATIJALARI / KASBIY KOMPETENSIYALAR

Talaba bilishi kerak:

- Ortopedik stomatologiya amaliyotida ishlatiladigan xom-ashyolar tarkibi;
- O'zakli konstruksiyalar turlari;
- Standart o'zaklar turlari ;
- O'zak-cho'girmali qistirmalar tayyorlashning bevosita va bilvosita usullarini;
- Tish ildizlari va o'zaklarga bo'ladigan talablarni;
- O'zakli konstruksiyalarga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni;
- Tish qatorlarining qisman nuqsonlari tasniflarini;
- Qisman tishsizlikda ortopedik davo rejasini tuzishni;
- Odontoparodontogramma tuzish va uning taxlilini;
- Ko'priksimon protezlar bilan protezlash xususiyatlarini *haqida tasavvurga*

ega bo'lishi;

- Retraksiyadan maqsad va uni o'tkazishni;
- tish qattiq to'qimalarini charxlash qalinliklarini;
- har bir bemorga individual yondoshishni;
- ortopedik stomatologiya amaliyotidagi xato va asoratlarni;
- rentgenologik tasvirlar turlarini;
- tishlar siljiganda hosil bo'ladigan morfologik o'zgarishlarni;
- tishlarni son, hajm va miqdor anomaliyalarini;
- tish qatorlari anomaliyalarini;
- stomatologik uskunalarni bilan ishlashda texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni;
- fiziologik va patologik prikuslarni farqlashni;
- ortopedik stomatologiyada markaziy okklyuziyani aniqlashni
- deformatsiyalarni bartaraf etish usullarini;
- tish qatori qisman nuqsonlari va deformatsiyalarini oldini olishni
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni *bilish va ulardan foydalana olishi;*
- elastik massalar yordamida qolip olish;
- jag'larning diagnostik modellarini qo'yish;
- olinmaydigan tish protezlar bilan ortopedik davo o'tkazish;
- tish protezlaridan foydalanganda gigienik me'yorlarga amal qilishni bemorga o'rgatish *amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.*

Umumiy kompetensiyalar- UK

UK 1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish.

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati.

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik.

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan

foydalanishga tayyorlik.

Umumiy kasbiy kompetensiyalar-UKK

UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik.

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik.

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik.

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

4.

VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI.

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruxlarda ishlash;
- jamo'a bo'lib ishlash;
- taqdimotlar tayyorlash;
- kasallik tarixini yozish;

5.

VII. TALABLAR KREDITLARNI TO'PLASH TARTIBI .

Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1 moduli bo'yicha nazorat turlari va nazorat mezonlari haqidagi ma'lumot birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN);
- yakuniy nazorat (YN).

V-VI semestr – 6,0 kredit

JN – 6,0

YN – 0 kredit (o'tilishi majburiy).

Modul bo'yicha talabanning semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

Modulga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

№	Baholash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv	100	6

	mashg'ulotlarni baxolash (JN)		
2.	Yakuniy nazorat (YN) (o'tilishi majburiy).	100	0
	JAMI	100	6,0

JORIY NAZORAT (JN)

JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi.

Joriy nazorat uchun 6,0 kredit ajratiladi:

JN kafedrada og'zaki so'rov va masofaviy ta'lim platformasida test shakllarida o'tkaziladi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. O'qituvchi tomonidan talabaning JN bali shu kunni o'zida platformaga qo'yiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Joriy nazoratda talaba ajratilgan kreditni to'liq to'plashi shart, shundagina u YN kiritiladi. Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

YAKUNIY NAZORAT (YN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba YNga kiritiladi. YNda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YN modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng og'zaki OSKE shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy

ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. YNda saralash balini (55 ball) yig'a olmagan talaba YNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda kreditni to'liq yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi. Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Ba ho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi; nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal	5	a'lo

			<p>qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va rasional ravishda hal etishi; modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi; modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi; o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi; modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi; standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi; amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi; amaliy mashg'ulotlarda normativ-</p>	4	yaxshi

			<p>huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni YNgi</p>		

			<p>vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham rasional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoniqarli" - sust natija, qo'pol kamchilik - lar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda</p>	3	Qoniqarli

			yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimc	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p>	2	Qoniqarsiz

		ha mustaqil o'zlash- tirishi zarur	amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash- tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

Fakultet ortopedik stomatologiyasi 1 fani moduli bo'yicha ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda xorijiy oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan ortodontiya yo'nalishi bo'yicha quyidagi dasturlar o'rganib chiqildi va ishchi dasturni ishlab chiqishda halqaro tajriba asosida o'zgartirishlar kiritildi:

1. Florida Universiteti (AQSH), Stomatologiya fakulteti, Tish protezlash klinik kursi sillabusi: <https://dental.ufl.edu/wordpress/files/2020/08/7845L.pdf>
Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №130/
https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/florida/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

2. Texas A&M University (AQSH), Stomatologiya fakulteti, «Stomatologiyaga kirish» moduli sillabusi:
<https://dentistry.tamu.edu/departments/dental-hygiene/admissions/syllabi/dhy-syllabi-1st-year/pdfs/3110-introduction-to-dentistry.pdf>
Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №143/
https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/name/texas/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

3. Qirol Abdul-Aziz Universiteti (Saudiya Arabistoni), Stomatologiya fakulteti, Og'iz bo'shlig'ini rehabilitatsiya qilish va protezlash kafedrası, Olinadigan tish protezlari kursi annotatsiyasi:
https://www.kau.edu.sa/Files/165005/Files/57262_Removable%20Prosthodontics%20523.pdf

Reyting: QS World University Rankings, №163/
(<https://www.topuniversities.com/qs-top-uni-wur>)

4. Qirolicha Mariya nomidagi London universitetining (Buyuk Britaniya) Stomatologiya instituti «Stomatologik jarrohlik bakalavriati» maxsus dasturi:
[https://www.qmul.ac.uk/governance-and-legal-services/media/dgls-media/quality/programme-specifications/2025-26/fmd/dentistry/PS-A200-BDS-\(29-Oct-2024\)-\(5\)-\(1\).pdf](https://www.qmul.ac.uk/governance-and-legal-services/media/dgls-media/quality/programme-specifications/2025-26/fmd/dentistry/PS-A200-BDS-(29-Oct-2024)-(5)-(1).pdf)

Reyting: QS World University Rankings, №110/
(<https://www.topuniversities.com/qs-top-uni-wur>)

5. Irlandiya Jarroxlari Qirollik Kolleji, Tibbiyot va salomatlik fanlari University (Irlandiya), Stomatologiya fakulteti, «Birlamchi stomatologik yordam» moduli sillabusi:
<https://facultyofdentistry.ie/images/examinations/General-Dental-Syllabus-and-guidance-notes.pdf>

Reyting: Times Higher Education World University Rankings 2025, №251/
(https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/latest/world-ranking#!/length/25/locations/IRL/sort_by/rank/sort_order/asc/cols/scores)

TOP-300 talik ro'yxatga kirgan nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini o'rganib chiqib, mazkur ishchi dasturga quyidagi mavzular qo'shimcha sifatida kiritildi:

- 1) Olinmaydigan tishlar bilan protezlashga muhtoj bo'lgan bemorlarni tekshirish, tashxis qo'yish va davolash rejasini tuzish. // Examine, diagnose, and present a treatment plan for your patients needing fixed restorations (THE WUR- 130).
- 2) Kesuv tishlarini E-max press keramikalar bilan yoki PFM bilan estetik restovratsiya o'tkazish.// Anterior esthetic fixed restorations (All-ceramic (E- max) or PFM). (THE WUR- 130).
- 3) Tishlarni okkluzion va bukkal yuzalarini charxlash.// Teeth preparation occlusal and buccal views. (THE WUR- 143).

4) Quyma tilla qoplamalar, metalokeramika yoki keramik ko`priksimon protezlar bilan sifatli protezlashda davolash rejasini tuzish.// Prepare teeth, fabricate and cement single cast gold restorations, PFM restorations and/or allceramic restorations as indicated by a predetermined treatment plan at an acceptable or excellent level of quality. (THE WUR- 143).

6.

Asosiy adabiyotlar:

1. Akbarov A.N., Irsaliev X.I., Xabilov N.L., Usmonov F.K., Ziyadullaeva N.S. Olinmaydigan tishlar bilan protezlash. - Toshkent. Global books. 2019 y.
2. Akbarov A.N., Irsaliev X.I., Xabilov N.L., Usmonov F.K., Ziyadullaeva N.S. Протезирование несъемными зубами. - Toshkent. Global books. 2019 y.
3. Ирсадиев Х.И., Хабилов Н.Л., Акбаров А.Н., Нигматов Р.Н. Ортопедик стоматология. Факультет курси. - Тошкент. Global books. 2018 й.
4. Ирсадиев Х.И., Нигматов Р.Н., Хабилов Н.Л. Ортопедик стоматология. Дарслик. – Тошкент. Янги аср авлоди. 2011 й.
5. Бекметов М.Б., Файзуллаев Ф.Ш., Раҳмонов Х.Ш. Ортопедик стоматология. Дарслик.: - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002.- 303-б.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Абакаров С.И. Современные конструкции несъемных зубных протезов. Учеб. пособие. – М.: Высш. шк., 1994. – 95 стр.
2. Аболмасов Н.Г. Аболмасов Н. Н. Бычков В.А. АльХаким А. Ортопедическая стоматология. Учебник. – М.: Мед-пресс информ, 2003 г.
3. Арсенина О.И., Яцина Е.Е., Жерехов Д.В. Функциональный несёмный телескопический аппарат. – М.: Медицинская книга, Н.Новгород: Изд. НГМА, 2001.
4. Арутюнов С.Д. и др. Одонтопрепарирование при восстановлении дефектов твердых тканей зубов вкладками. – М.: Молодая гвардия, 2007, - 136 стр.
5. Данилина Т.Ф. Литье в ортопедической стоматологии. Монография. – Волгоград: Изд. ВолГМУ, 2011. – 132 стр.
6. Жулев Е.Н. Несъемные протезы: теория, клиника и лабораторная техника. 4-е издание. – Н.Новгород: Изд. НГМА, 2002. – 365 стр.
7. Исмоилов И.Х., Атаханов А.В., Атаханов А.А. Тиш қаторларининг қисман нуқсонлари ва уларни ортопедик даволаш. Ўқув қўлланма. – Андижон: “RE-HEALTH”., 2023. - 148 б.
8. Каламқаров Х.А. Ортопедическое лечение с применением металокерамических протезов. – М.: Мед. инф. аген., 2003. – 216 стр.
9. Копейкин В.Н. и др. Ортопедическая стоматология. Учебник. – М.: “Медицина”., 2001. – 621 стр.
10. Копейкин В.Н., Демнер Л.М. Зубопротезная техника. – М.: Изд. Дом “Успех”., 1998. – 416 стр.
11. Мирёкубов М. Ортопедик стоматология. Дарслик. 3 қ.и.т.н. - Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1995. – 303 б.

	<p>12. Ямамото М. Базисная техника изготовления металлокерамических зубных протезов. Введение в технологию металлокерамики. Цветной атлас. – М.: Изд. “Квинтэссенция”, 1998. – 117 стр.</p> <p>13. Herbert Shillingburg. Fundamentals of Fixed Prosthodontics. Textbook., USA. Quintessence Publishing Co. 2012 y.</p> <p style="text-align: center;">Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.google.uz 2. www.adti.uz 3. www.ziyonet.uz 4. www.orthos.ru 5. www.dentalcentr.com/ortodontiya 6. www.ortofil.ru 7. www.booksmed.ru. 8. www.lecturio.com 9. dental.ufl.edu 10. dentistry.tamu.edu
7.	<p>Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashining 2025 yil “__27__”_08 dagi _1__-sonli yig’ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ullar: R.R.Raimjonov - Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası mudiri. I.X.Ismoilov - Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası katta o`qituvchisi. J.D.Odiljonov - Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Tulanov D.Sh. – ADTI Bolalar stomatologiyasi kafedrası katta o`qituvchisi, t.f.n.. Usmonov B.A. – ADTI Terapevtik stomatologiya kafedrası mudiri.</p>